Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Nilufar Dalibayevna Djurayeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri,
tarix fanlari nomzodi, professor

O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL

For citation: Nilufar D. Djuraeva. STATE POLICY ON PROMOTING WOMEN’S SOCIAL ACTIVISM IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD AND THE YEARS OF INDEPENDENCE: HISTORICAL EVOLUTION AND COMPARATIVE ANALYSIS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674235

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda sovet davri (1917–1991yy.) va mustaqillik yillarida (1991–2026 yy.) xotin-qizlarga oid davlat siyosatining tarixiy evolyutsiyasi va qiyosiy tahlili ilmiy o‘rganilgan. Tadqiqotda sovet tuzumining “ayollarni ozod qilish” siyosati, “Hujum” kampaniyasi, ta’lim va mehnatga jalb etish jarayonlari, shuningdek, mustaqillik davridagi konstitutsiyaviy kafolatlar, gender tenglik qonunlari va institutsional islohotlar o‘rganilgan. Qiyosiy tahlil natijasida ikki davrning o‘xshashliklari va farqlari, yutuqlari va kamchiliklari ilmiy asosda yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida xotin-qizlarga oid davlat siyosatining shakllanishi, huquqiy asoslari, institutsional tuzilmalari va amalga oshirilgan islohotlarning tarixiy bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda konstitutsiyaviy kafolatlar, maxsus qonunlar, dasturlar hamda “Yangi O‘zbekiston” davridagi yangilanishlar o‘rganilib, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy faolligini oshirishdagi yutuqlar va mavjud muammolar ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xotin-qizlar siyosati, gender tenglik, sovet davri, mustaqillik, davlat siyosati, “Hujum” kampaniyasi, ta’lim, mehnat, huquqiy kafolatlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, Yangi O‘zbekiston, institutsional islohotlar.

Джураева Нилуфар Далибаевна,
Узбекский государственный университет мировых языков
Заведующая кафедрой истории Узбекистана,
Кандидат исторических наук, профессор

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА ПО СОДЕЙСТВИЮ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД И В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКАЯ ЭВОЛЮЦИЯ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно исследованы историческая эволюция и сравнительный анализ государственной политики в отношении женщин в Узбекистане в советский период (1917–1991 гг.) и в годы независимости (1991–2026 гг.). В исследовании изучены политика советского строя по «освобождению женщин», кампания «Худжум», процессы вовлечения женщин в образование и труд, а также конституционные гарантии, законы о гендерном равенстве и институциональные реформы периода независимости. По результатам сравнительного анализа на научной основе раскрыты сходства и различия двух периодов, их достижения и недостатки.

Проанализированы формирование государственной политики в отношении женщин в Республике Узбекистан в годы независимости, её правовые основы, институциональные структуры и исторические этапы осуществлённых реформ. В исследовании изучены конституционные гарантии, специальные законы, программы, а также обновления периода «Нового Узбекистана»; на научной основе освещены достижения и существующие проблемы в повышении социально-политической, экономической и культурной активности женщин.

Ключевые слова: политика в отношении женщин, гендерное равенство, советский период, независимость, государственная политика, кампания «Худжум», образование, труд, правовые гарантии, социально-политическая активность, Новый Узбекистан, институциональные реформы.

Nilufar D. Djuraeva,
Uzbek State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor

STATE POLICY ON PROMOTING WOMEN'S SOCIAL ACTIVISM IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD AND THE YEARS OF INDEPENDENCE: HISTORICAL EVOLUTION AND COMPARATIVE ANALYSIS

ABSTRACT

This article scientifically examines the historical evolution and comparative analysis of state policy towards women in Uzbekistan during the Soviet period (1917–1991) and the years of independence (1991–2026). The study analyses the Soviet regime's policy of "emancipating women," the Hujum campaign, processes of involving women in education and labour, as well as the constitutional guarantees, gender equality laws, and institutional reforms of the independence period. Based on a comparative analysis, the similarities and differences between the two periods, as well as their achievements and shortcomings, are examined on a scholarly basis.

The formation of state policy towards women in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, its legal foundations, institutional structures, and the historical stages of implemented reforms are analysed. The study examines constitutional guarantees, special laws, programmes, and the reforms of the "New Uzbekistan" period, highlighting on a scholarly basis the achievements and existing problems in enhancing women's socio-political, economic, and cultural activity.

Indwx Terms: women's policy, gender equality, Soviet period, independence, state policy, Hujum campaign, education, labour, legal guarantees, socio-political activity, New Uzbekistan, institutional reforms.

Mavzuning dolzarbligi:

O‘zbekiston tarixida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy mavqei har doim davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. XX asrning dastlabki yillarida mamlakatda sovet davlati tashkil topganidan so‘ng O‘zbekiston hududida chuqur madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirildi va “sovet sharqi” xotin-qizlarini “ozodlikka” chiqarish

bahonasida sharq xalqlari turmush tarzida inqilobiy tadbirlar orqali tub o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Mustaqillikka erishgach, O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, so‘nggi besh yillikda (2017–2026 yy.) “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida xotin-qizlar siyosati tubdan yangilanib, tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda sovet davri va mustaqillik yillarida xotin-qizlarga oid davlat siyosatining tarixiy evolyutsiyasini bosqichma-bosqich tahlil qilish, ikki davrning o‘xshashliklari va farqlarini qiyosiy tahlil asosida ochib berish, yutuqlar va kamchiliklarni ilmiy asosda baholashdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asoslari: tarixiy-taqqoslash tahlili, huquqiy-normalar tahlili, institutsional yondashuv, statistika va demografik ko‘rsatkichlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil.

Tadqiqot natijalari:

Sovet hokimiyatining 1917-yil oktyabrida qabul qilgan dastlabki dekretlaridan biri xotin-qizlarning iqtisodiy va siyosiy jihatdan huquqda tengsizligini tugatish, xotin-qizlarni erkaklar bilan chinakam teng huquqqa ega qilish to‘g'risidagi dekreti edi. 1917-yilning dekabrida tarbiya va maorif ishlari diniy mahkama qo‘lidan olinib, Maorif Xalq Komissarligi ixtiyoriga topshirish to‘g‘risida dekret e’lon qilindi. Sovet davlati o‘zining barqarorlikka erishish yo‘li deb, dastlab maqsadni madaniy hayotni izga solish hisoblab, 1919-yilning 26-dekabrida Xalq Komissarlari Sovetining savodsizlikni tugatish to‘g'risidagi dekreti qabul qilindi [1].

1920-yillarning boshlaridanoq Turkiston o‘lkasi kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti huzurida, shahar va rayon partiya komitetlari huzurida xotin-qizlar o‘rtasida ishlash bo‘limlari – jenotdellar barpo etildi. Ishchi va dehqon xotin-qizlari o‘rtasida targ‘ibot va tashviqot ishlari olib borish uchun bu jenotdellar qoshida alohida partiya tashkilot komissiyalari ham tuzildi. Xotin-qizlar o‘rtasida ommaviy-siyosiy ishlar keng tar‘g‘ib etildi[1].

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ayollar o‘rtasidagi targ‘ibot tadbirlarida xotin-qizlar klublari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shunday klublardan birinchisi – 1924-yilda Toshkentning eski shahar qismida ochilgan edi. So‘ngra, bunday klublar boshqa shaharlarda ham ochila boshladi. Xotin-qizlar klublari huzurida bolalar yaslilari, xotin-qizlar va bolalar uchun shifokor maslahatlari, savodsizlikni tugatish maktablari, huquqiy masalalar yuzasidan maslahatxonalar, turli xil to‘garaklar tashkil etildi[1].

1920-yillarning ikkinchi yarmiga kelib sovet hukumatining “Hujum” deb nomlangan kampaniyasi islom diniga qarshi kurashda markaziy rol o‘ynadi. Kampaniya 1927-yilning mart oyida xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan shiddatli tus oldi va sovet hokimiyati “O‘rta Osiyolik mazlum ayollarni zulm ostidan, feodal patriarxal jamiyat zanjirlari ozod qilmoqchi” deb e’lon qilindi [2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayollarning ozodligi O‘rta Osiyodagi tub musulmonlar orasidan sovet ittifoqchilari topish strategiyasining bir qismi sifatida amalga oshirilgan[2]. Natijada majburiy ozodlik siyosati, pardani majburan tark etish “erkinlikning bevaqt, zaif va nuqsonli shaklini tug'dirdi". 1927–1928-yillarda 2,5 ming ayollar ushbu siyosat qurboni bo‘lishdi. Lekin bunga qarshi ishlar ham olib borildi. 1928-yilda ayollarga nisbatan g'ayriqonuniy harakat olib borganligi uchun 671 kishi jazoga tortildi.[2][1]

Sovet hukumati ta'lim va asosiy savodxonlikni kengaytirib, ayniqsa, qizlar va ayollarga e'tibor qaratdi. 1925/26-o‘quv yillarida ijtimoiy tarbiya tizimidagi 96 ta maktabda xotin-qizlardan 9454 kishi, savodsizlikni bitirish uchun ochilgan 82 ta maktabda 2130 kishi o‘qidi. O‘g'il va qiz bolalar aralash o‘qiydigan birinchi bosqich maktablarida qizlardan 4563 kishi ta’lim olgan[1].

Xotin-qizlar o‘quv yurtlari va ularda o‘quvchilar sonining o‘sishi (1923–1927):[1]

O‘quv yurtlari xillari	1923/1924 o‘quv yili	1924/1925 o‘quv yili	1925/1926 o‘quv yili	1926/1927 o‘quv yili
O‘quv yurtlari soni	O‘quvchilar soni	O‘quv yurtlari soni	O‘quvchilar soni	O‘quv yurtlari soni

O‘quv yurtlari xillari	1923/1924 o‘quv yili	1924/1925 o‘quv yili	1925/1926 o‘quv yili	1926/1927 o‘quv yili
Ijtimoiy tarbiya maktablari	30	1344	34	2158
Internat maktablar	–	–	3	163
Savodsizlikni tugatish maktablari	23	500	51	1123
Pedagogika texnikumi	–	–	–	–

Bu jadvaldan xotin-qizlar o‘quv yurtlarining va ulardagi o‘quvchilarning soni yildan-yilga oshib borgani yaqqol ko‘rinib turadi.[1]

Sovet Ittifoqi ayollarning ish kuchi va ta'limga kiritilishini rag'batlantirdi. Ayollar bo‘lajak “kommunistik avlodlarning onalari” deb hisoblangan va Sovet Ittifoqi turli mintaqalarning turli xususiyatlaridan qat'i nazar, butun Ittifoqdagi ayollarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ishtirokini rag'batlantirgan.[2][3]. Ikkinchi jahon urushi davrida erkaklar frontga ketgach, sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqaruvning asosiy og‘irligi to‘laqonli ravishda xotin-qizlar zimmasiga tushdi. Natijada qishloq xo‘jaligi xodimlarning deyarli 80% ulushi ayollar zimmasiga to‘g'ri keldi.

Sovet davri xotin-qizlar siyosati xususiyatlarining ijobiy tomoni sifatida ayollarning ta'lim va mehnatga keng jalb etilishi; savodxonlik darajasining oshishi; xotin-qizlarning o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olish ko‘rsatkichlari keskin oshganini, tibbiyot, pedagogika va yengil sanoat tarmoqlarida ayollar mutaxassis sifatida ustunlikka erishganini, davlat idoralariga xotin-qizlarning jalb qilinishi, tibbiy xizmat va ijtimoiy himoyaga e’tibor qaratilganini ta’kidlash mumkin.

Salbiy tomoni sifatida majburiy ozodlik siyosati va "Hujum" kampaniyasining zo‘ravonlikka olib kelishi; an'anaviy qadriyatlar va diniy e'tiqodlarning buzilishi; ayollarning mustaqil siyosiy faoliyatining taqiqlanishi; gender tenglikning faqat qog'ozda mavjudligi, amalda esa erkaklar ustunligining saqlanib qolganini misol keltirish mumkin. Garchi qonunchilikda teng huquqlilik qat’iy belgilangan bo‘lsa-da, amalda rahbarlik lavozimlaridagi ayollar asosan "kvarsiya" (sun’iy kvota) asosida tayinlangan va ular asosan ijrochi darajasida qolib, haqiqiy siyosiy qarorlar qabul qilish mexanizmlaridan chetda edilar. Sovet davri xotin-qizlarga savodsizlikni tugatish, ommaviy mehnat bozoriga chiqish va professional ta’lim olish imkonini berdi, biroq bularning barchasi mafkuraviy tazyiq ostida kechdi.

Mustaqillik davri esa ayollarning milliy o‘zligini tiklash, ularning siyosiy-huquqiy ongini oshirish, mustaqil iqtisodiy subyekt (tadbirkor, olima, rahbar) sifatida shakllanishida tub burilish yasadi. Xotin-qizlar siyosati zamonaviy jamiyat taraqqiyotida gender tenglikni ta’minlash inson huquqlari, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishning ajralmas qismi sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish” (CEDAW, 1979) konvensiyasi va boshqa xalqaro hujjatlar ushbu tamoyillarni mustahkamlab, davlatlarga ayollar huquqlarini ta’minlash majburiyatini yuklaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakatda xotin-qizlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, so‘nggi besh yillikda (2017–2026 yy.) “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida xotin-qizlar siyosati tubdan yangilanib, tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari:

Tarixiy-taqqoslash tahlili, huquqiy-normalar tahlili, institutsional yondashuv, statistika va demografik ko‘rsatkichlarni o‘rganish.

Tadqiqot natijalari:

Xotin-qizlarga oid davlat siyosatini 2 tarixiy bosqichga bo‘lib tadqiq etish mumkin: Birinchi bosqich: 1991-2016-yillar – mustaqillikning dastlabki yillari va ijtimoiy faollikni kuchaytirish.

Ikkinchi bosqich: 2017-2026-yillar – Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarni qo‘’lab-quvvatlashga doir tub islohotlar.

Birinchi bosqichda xotin-qizlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari shakllandi:

1991-yilda 27-dekabrda Termiz konferensiyasida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi jamoat tashkiloti sifatida tashkil etildi – ayollar manfaatlarini himoya qilish, ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat sohalarida qo‘llab-quvvatlash vazifalari yuklandi. Dastlabki rahbari Halima Xudoyberdieva 1991–1994-yillarda faoliyat yuritdi. Qo‘mitaning asosiy vazifalari etib, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish; ta’lim, sog‘liqni saqlash va mehnat sohalarida qo‘llab-quvvatlash; xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kabilar belgilandi. Qo‘mita dastlab jamoat tashkiloti sifatida tashkil etilgan bo‘lsa-da, keyinchalik davlat organi funksiyalarini ham bajara boshladi. 1995-yilgi hukumat qarori – Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi bir vaqtning o‘zida Bosh vazir o‘rinbosari bo‘lishi belgilandi. Qo‘mita maqomi oshib, xotin-qizlar siyosati davlat boshqaruvi tizimiga integratsiya qilindi. Joylarda qo‘mita raislari hokimlarga o‘rinbosar bo‘ldi. 1994-2004-yillarda Dilbar G‘ulomova faoliyat yuritdi.

Xotin-qizlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, Konstitutsiyaviy kafolatlar ta’minlandi. Jumladan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Ayollar va erkaklar teng huquqlidirlar” degan norma bilan mustahkamlandi. Bu modda xotin-qizlar huquqlarining davlat tomonidan kafolatlanishining asosiy konstitutsiyaviy poydevori bo‘lib xizmat qildi. Konstitutsiya xotin-qizlar huquqlarini umumiy inson huquqlari doirasida ko‘rib chiqdi, ammo gender tenglikni ta’minlash uchun maxsus mexanizmlar hali shakllanmagan edi.

1995-yil 18-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyani **(**CEDAW**)** ratifikatsiya qildi. Ushbu xalqaro hujjat xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, gender tengligini ta'minlash hamda hayotning barcha sohalarida kamsitishlarga barham berishga qaratildi. Asosiy maqsadi **e**rkaklar va ayollar tengligini ta'minlash, jinsiy belgilarga ko‘ra har qanday kamsitishni bartaraf etish hamda milliy qonunchilikka tenglik prinsiplarini joriy qilishdan iborat bo‘ldi. O‘zbekiston Konvensiya ijrosi yuzasidan BMTning CEDAW qo‘mitasiga har 4 yilda yoki so‘ralganda milliy ma'ruza taqdim etishi belgilandi. O‘zbekiston CEDAW Konvensiyasini qabul qilgan bo‘lsa-da, xotin-qizlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘mitaga shikoyat qilish imkonini beruvchi Qo‘shimcha protokolni Markaziy Osiyoda hali ratifikatsiya qilmagan yagona davlat hisoblanadi.

1997-yil “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlari kengaytirildi. Ushbu qonun xotin-qizlarning ta’lim olish huquqini kengaytirdi.

Muhim normalar:

9 yillik majburiy ta’lim – qizlarning maktab ta’limini to‘liq olishini ta’minladi; oliy ta’limda qizlar uchun kvotalar joriy etish imkoniyati; kasb-hunar ta’limini rivojlantirish – qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish. Natijada xotin-qizlarning oliy ta’limga kirish ko‘rsatkichi barqaror oshib bordi.

1997-yilda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim tizimini isloh qilish va xotin-qizlarning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan edi.

Asosiy yo‘nalishlar: maktabgacha ta’limni rivojlantirish – onalarning ishga chiqishini osonlashtirdi; kasb-hunar kollejlari tarmog‘ini kengaytirish – qizlarning kasbiy yo‘nalishlarda o‘qishini ta’minladi; oliy ta’limda qizlar uchun grantlar va stipendiyalar.

Shuningdek, 1999-yil “Ayollar yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 18-fevraldagi 73-son qarori bilan “Oilada, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” davlat dasturi asosida xotin-qizlar bandligini oshirish, tadbirkorlikka jalb etish choralari belgilandi[2]. Ushbu davlat dasturining asosiy maqsadlari va yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

Huquqiy himoya: Xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish hamda ularning huquq va erkinliklarini ta’minlashning qonunchilik asoslarini mustahkamlash.

Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va bandlik: Ayollar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish, ularni tadbirkorlik va kasanachilik faoliyatiga keng jalb etish, xotin-qizlar bandligini oshirish.

Ijtimoiy imtiyozlar: Dastur doirasida (xususan, 1999-yil 14-apreldagi qonun bilan) 3 yoshgacha bolalari bo‘lgan, budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda ishlaydigan ayollar uchun qisqartirilgan ish vaqti (haftasiga haftasiga ko‘pi bilan 35 soat) joriy etilgan hamda ma’lum ish stajiga ega ayollarga 54 yoshdan pensiyaga chiqish huquqi berilgan[3].

Salomatlik va oila: Onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar salomatligini yaxshilash va oila institutini mustahkamlash.

Iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish: Aynan 1999-yil iyun oyida iqtidorli qizlar uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etilgan[4].

1999-yil 14-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g'risida"gi 760-I-sonli Qonun mustaqillik yillarida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan eng muhim maxsus huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi[3]. Ushbu qonun 1999-yil 1-iyuldan kuchga kirgan va xotin-qizlarga mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida qo‘shimcha imtiyozlar bergan.

Asosiy yo‘nalishlar:

a) Mehnat huquqlari:

Uch yoshga to‘lmagan bolalari bor, budjet hisobidan moliyaviy ta’minlanadigan muassasalar va tashkilotlarda ishlayotgan ayollarga ish haqi kamaytirilmagan holda haftasiga ko‘pi bilan 35 soatlik qisqartirilgan ish vaqti belgilanadi. Homiladorlik va tug‘ruq ta’tillari (126 kun, murakkab tug‘ruqda 140 kun); 3 yoshgacha bo‘lgan bolani parvarish qilish ta’tili; kechki smenada, og‘ir jismoniy mehnatda va zararli sharoitlarda ishlashni taqiqlash; ish beruvchining homilador ayolni ishdan bo‘shatishini taqiqlash.

b) Ta’lim sohasida:

Qizlarning oliy o‘quv yurtlariga kirishida kvotalar;

Turmushga chiqqan qizlarning o‘qishini davom ettirish huquqi;

Masofadan ta’lim olish imkoniyatlari.

c) Ijtimoiy himoya:

Yolg‘iz onalarga nafaqalar;

Ko‘p bolali oilalarga moddiy yordam;

Nogiron farzandi bor ayollarga qo‘shimcha imtiyozlar.

d) Sog‘liqni saqlash:

Homiladorlik va tug‘ruq davrida bepul tibbiy xizmat;

Profilaktik ko‘rikdan o‘tish huquqi.

Zarur ish stajiga ega bo‘lgan (1993-yilgi "Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida"gi qonunning 37-moddasiga muvofiq) ayollarga 54 yoshga to‘lganda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi beriladi. Ushbu qonun xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan eng muhim maxsus huquqiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Xotin-qizlarga mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida qo‘shimcha imtiyozlar berdi va ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga hissa qo‘shdi. Biroq, qonun "qo‘shimcha imtiyozlar" yondashuvi tufayli ayollarni "himoyaga muhtoj" guruh sifatida ko‘rish tendensiyasini kuchaytirdi va gender tenglik tamoyilini to‘liq aks ettirmadi. 2022-yil 1-may: "Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g'risida"gi Qonun o‘z kuchini yo‘qotgan deb topildi va uning normalari yangi qonunlar ("Gender tengligi to‘g'risida"gi Qonun, "Xoti-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g'risida"gi Qonun) bilan almashtirildi. Qonunning ayrim bandlariga keyinchalik, jumladan 2022-yil 28-okdabrda qabul qilingan O‘RQ-798-sonli Qonunga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilgan.

1999-yil “Ayollarni ijtimoiy himoya qilish davlat dasturi” – bandlik va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rildi. Xotin-qizlar uchun mikrokreditlar; tadbirkorlik kurslari va treninglar; yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalarga moddiy yordam; qishloq joylarida xotin-qizlar klublari tashkil etish kabi muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu davrda xotin-qizlarning ijtimoiy mavqei mustahkamlanib, gender tenglik tamoyillarini qaror toptirishda muhim bosqich bo‘ldi.

2004-yil 25-maydagi “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-3434-sonli Prezident Farmoni qabul

qilindi. Ushbu farmon xotin-qizlar siyosatida muhim huquqiy hujjati bo‘ldi. Xotin-qizlar qo‘mitasining ishchi apparati tuzilmasi xarajatlari byudjet hisobidan ta’minlanishi belgilandi; xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘limlari uchun shtat birliklari ajratildi. Xotin-qizlar bandligini oshirish bo‘yicha dasturlar moliyalashtirildi. Xotin-qizlar bandligini oshirish bo‘yicha maxsus loyihalar amalga oshirildi. Qo‘mita Nizomi yangi tahrirda tasdiqlandi; vazifalar va funksiyalar kengaytirildi; xotin-qizlar muammolarini hal qilishda vazirliklar va idoralar bilan hamkorlik mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. Qishloq joylarida xotin-qizlarning o‘qish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga e’tibor qaratildi. Ushbu farmon Xotin-qizlar qo‘mitasini moliyaviy va institutsional jihatdan mustahkamladi, ammo qo‘mita hali ham jamoat tashkiloti maqomida qoldi.

2000-yillarda xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtiroki sezilarli darajada kengaydi: 2003-yil 29-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasiga 2004 –yilda kiritilgan o‘zgartirishlarga muvofiq, siyosiy partiyalarga parlament saylovlarida kamida 30 foiz ayollar nomzodini ilgari surish talabini joriy etdi. 2004-yil saylov qonunchiligiga o‘zgartish – siyosiy partiyalarga parlament saylovlarida kamida 30 foiz ayollar nomzodini ilgari surish talabi joriy etildi. 2010-yilda “Gender tengligi” tushunchasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi – ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, o‘qish va ishlash huquqlarini ta’minlash bo‘yicha maxsus fondlar tashkil etildi. 2016-yilga kelib, xotin-qizlar davlat boshqaruvining yuqori bo‘g‘inlarida ham faol ishtirok eta boshladilar – Parlament, vazirlik va hokimliklarda ayollar ulushi barqaror oshib bordi. Umuman olganda xotin-qizlarga oid davlat siyosatining shakllanish va institutsional mustahkamlanish bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda mustaqillikning dastlabki yillarida konstitutsiyaviy kafolatlar, maxsus qonunlar, prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi. Shu bilan birga, bu davrda ham gender stereotiplari, qishloq joylarida ta’lim olishdagi to‘siqlar va mehnat bozorida tengsizlik kabi muammolar saqlanib qoldi.

Mazkur bosqichda Parlamentda ayollar ulushi 1994-yilda faqat 5 nafar edi, 2004-yilga kelib ham 15 foizdan oshmadi. Qishloq joylarida erta nikohlar va gender stereotiplari qizlarning ta’lim olishiga to‘siq bo‘ldi. Mehnat bozorida tengsizlik saqlanib qoldi: ayollar asosan “ayollarga xos” kasblarda ishlaydi, rahbarlik lavozimlarida ulushi past edi. Huquqiy mexanizmlarning zaifligi gender tenglikni ta’minlash uchun maxsus mexanizmlar (masalan, gender ekspertizasi, kvotalar) hali shakllanmagan edi.

2017–yildan boshlab "Yangi O‘zbekiston" strategiyasi doirasida xotin-qizlar siyosati tubdan yangilanib, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, oila va bolalikni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi” doirasida tizimli va institutsional islohotlar amalga oshirildi. Ushbu bosqichda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshirildi, huquqlari himoya qilindi va qonuniy manfaatlarini ifodalash mexanizmlari takomillashtirildi.

2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonun bilan “gender” tushunchasiga rasmiy ta’rif berildi, gender tenglik siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlandi, ayollar huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilishni ta’minladi[8]. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashi natijasida Qonunchilik palatasida 32 foiz, Senatda 25 foiz ayollar tashkil etishiga erishildi.

Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tuzildi va uning vakolatlari kengaytirildi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini yuritadigan alohida maqomga ega respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi hamda o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi. Qo‘mita tizimiga quyidagilar kiradi:

Qo‘mitaning markaziy apparati – Toshkent shahrida joylashgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar oila va xotin-qizlar boshqarmalari – hududiy boshqarmalar; Tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limlari – mahalliy darajadagi bo‘limlar; Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti – ilmiy-tadqiqot faoliyati; Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi – moliyaviy ta'minot; Respublika va

hududiy "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" – tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash; Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasi – iqtidorli qizlarni qo‘llab-quvvatlash; mahalladagi xotin-qizlar faollari – mahalla darajasida ish olib boruvchi faollar; "Olima ayollar" jamiyati – ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollar uyushmasi; "Saodat" jurnali, "Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila" xalqaro ilmiy jurnali tahririyati – nashriyot faoliyatidan iborat tarkibdan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari – Qo‘mitaga hamda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hisobot beradi. Tuman (shahar) bo‘limlari – tegishli hududiy boshqarmalar va tuman (shahar) hokimliklariga hisobot beradi. Mahalladagi xotin-qizlar faollari – mahalla darajasida xotin-qizlar muammolarini hal qilishda faollik ko‘rsatadi.

Qo‘mitaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ifodalash; .

- erkaklar va xotin-qizlarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash, xotin-qizlar va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- davlat xizmati, ta'lim, ilm-fan va innovatsiya, sport, sog'liqni saqlash hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish;

- xotin-qizlarning kasbiy ko‘nikmalarini oshirish, munosib ish topishiga ko‘maklashish, tadbirkorligini rivojlantirish;

- oila a'zolarining huquqiy madaniyatini oshirish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy xodim va boshqa davlat xizmatchilari bilan hamkorlikda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish;

- oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sog'lom ovqatlanish hamda reproduktiv salomatlik qoidalarini ommalashtirish;

- oila institutini mustahkamlash, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni targ'ib qilish;

- migratsiyadan qaytgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarning ijtimoiy moslashuviga, ular bilan manzilli ishlash orqali zarur yordamlar olishlariga ko‘maklashish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash hamda ular bilan manzilli ishlash shular jumlasiga kiradi.

Qo‘mita o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish sohasida:

- Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali ijrosini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi roli va faolligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- Xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ko‘zlab, sudlarga ariza (shikoyat) va da'volarni kiritish;

- "Mo‘tabar ayol" ko‘krak nishoni bilan taqdirlash ishlarini tashkil etish.

b) Gender tenglikni ta'minlash sohasida:

Jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlashda ishtirok etish;

- xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash choralarini ko‘rish;

- gender tenglik sohasidagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

- gender ekspertizasi va gender auditini o‘tkazish.

c) Ta'lim, ilm-fan va innovatsiya sohasida:

- oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda xotin-qizlarni ilm-fanga keng jalb etish;

- xotin-qizlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g'oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

- Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash ishlarini tashkil etish.

d) Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasida:

- xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish;

- oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan grantlar ajratilishiga ko‘maklashish;

- respublika va hududiy "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" faoliyati samarali tashkil etilishiga ko‘maklashish.

e) Zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasida:

- xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish borasida amaliy targ'ibot va turkum tadbirlarni tashkil etish;

- xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish;

- zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga amaliy yordam ko‘rsatish yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.

Shu o‘rinda qayd etish joizki, 2021-yil so‘rovnomasida respondentlarning 42 foizi moliyaviy sabablarga ko‘ra uydagi zo‘ravonlikka toqat qilishini ma’lum qilgan.

Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi – Qo‘mita tizimiga kiruvchi mustaqil moliyaviy institut hisoblanib, manbalari davlat byudjeti mablag'lari; xalqaro donorlar va tashkilotlar mablag'lari; Jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'laridan iborat.

Jamg'arma xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xotin-qizlarga mikrokreditlar va grantlar ajratish; tadbirkorlik kurslari va treninglar tashkil etish; "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" faoliyatini moliyalashtirish; ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarga kontrakt to‘lovlarini qoplash; magistraturada o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini davlat byudjetidan qoplash; iqtidorli qizlarga stipendiyalar berish; og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga moddiy yordam; uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni arzon uy-joylar bilan ta'minlashda ko‘maklashish; nogironligi bo‘lgan xotin-qizlarni reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi. Islohotlar natijasida O‘zbekistonda yolg‘iz ayollar o‘rtasida bandlik darajasi 52 foiz, turmushga chiqqan ayollarda esa 36 foizga yetdi. 2022–2025 yillarda 333,8 mlrd so‘m miqdorida mablag' davlat byudjetidan qoplab berildi (magistraturada o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari). 980 nafar tadbirkor xotin-qizlarga grant mablag'lari ajratildi. Oliy ta'limdagi talabalar orasida xotin-qizlarning ulushi 53 foizga yetdi (2017-yilda bu ko‘rsatkich 39 foiz edi). 2021–2022 o‘quv yilida oliy o‘quv yurtlarida 808,4 ming nafar talaba, shundan 45,6 foizi ayollar (369 ming nafar) tashkil etdi. Vaholanki, 2019-yilda bakalavr darajasini olgan bitiruvchilarning atigi 38,3 foizi xotin-qizlardan iborat bo‘lgan. 2022-yildan boshlab: Qizlarga ta’lim kontraktini to‘lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy etildi. Ehtiyojmand oilalardagi qizlar uchun davlat granti asosida qabulda tavsiyanoma berish tizimi: to‘liqsiz oilalar, kam ta’minlangan oilalar, turmush o‘rtog‘i vafot etgan ayollar, nogiron farzandi bor oilalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar uchun. Magistraturada o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini davlat budjetidan qoplash tartibi belgilandi. Har bir hududdan ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz 100 nafar ayollarning to‘lov kontrakti hokimliklar tomonidan har yili to‘lab beriladi.

Yana bir muhim natija qonunchilik hujjatlari loyihalarini gender tenglik nuqtai nazaridan baholash jarayoni gender ekspertizasining joriy etilishi bo‘ldi. Maqsad - qonunchilik hujjatlarida gender tenglik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlash; xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq

hamda imkoniyatlarni ta'minlash; gender kamsitishlarning oldini olishdan iborat. Qo‘mita vazirliklar va idoralar, xo‘jalik birlashmalarining oila va xotin-qizlar masalalari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, rivojlantirish dasturlari loyihalarini amalga oshiradi. Gender ekspertizasidan o‘tmagan hujjatlar qabul qilinmaydi. Davlat organlari va tashkilotlarida gender tenglik holatini baholash jarayoni – gender auditioning asosiy vazifalari davlat organlari va tashkilotlarida xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbatini o‘rganadi. Davlat organlari va tashkilotlari o‘z faoliyatini genderga doir kompleks yondashuv asosida tashkil etganligi holatini o‘rganib chiqadi. Gender tenglikni ta'minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ayollar huquqlari yanada mustahkamlandi: “Davlat xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirokini ta’minlaydi” degan norma alohida qayd etildi. 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi qat'iy belgilab qo‘yildi.

2023-yilda ayollarning yetakchilik va qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi rolini oshirishga qaratilgan tuzilma – O‘zbekiston Yetakchi Ayollar muloqoti platformasi tashkil etildi. 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi – ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo‘yicha tizimli o‘quvlar tashkil etilmoqda.[

2026-yil 27-yanvarda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) hamkorligida "Boshqaruv tizimida gender tenglikni ta'minlash mexanizmlari: genderga oid audit tamoyillari" mavzusida o‘quv-seminar o‘tkazildi. Davlat tashkilotlarida genderga oid auditni o‘tkazish bosqichlari, gender reyting va indekslarda O‘zbekistonning o‘rnini yaxshilash bo‘yicha vazirlik va idoralar oldida turgan vazifalar yuzasidan ma'lumotlar berildi.

Qo‘mita quyidagi BMT tashkilotlari bilan keng hamkorlik qiladi. BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonalari:

UN Women (BMT-Ayollar tuzilmasi) – 2025-yil 27-mayda Toshkent shahrida rasmiy vakolatxonasi ochildi. UNFPA (BMT Aholishunoslik jamg'armasi) – reproduktiv salomatlik, gender tenglik va yoshlar masalalari bo‘yicha hamkorlik, UNDP (BMT Taraqqiyot dasturi) – gender tenglik, kambag'allikni qisqartirish va barqaror rivojlanish bo‘yicha hamkorlik, UNICEF (BMT Bolalar jamg'armasi) – bolalar va ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha hamkorlik shular sirasiga kiradi.

Qo‘mita ushbu tashkilotlar bilan gender tenglik strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish; gender auditini o‘tkazish va gender ekspertizasini joriy etish; xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish; xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shma loyihalar yo‘nalishlarida hamkorlik qiladi. Jahon banki uchun 2024-yilda "O‘zbekistonda gender tengligi tahlili" hisoboti tayyorlandi. Hisobotda 2017-yildan buyon gender tengligiga erishish borasida erishilgan sezilarli yutuqlar e'tirof etilgan. O‘zbekiston 2024-yilda dunyodagi 190 ta davlat orasida gender tengligini ta'minlashda eng katta yutuqlarga erishgan yetakchi islohotchi-davlatlar beshtaligidan joy oldi. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan gender auditi tamoyillarini joriy etish, davlat boshqaruvida gender tenglikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha hamkorlik o‘rnatilgan. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan mehnat sohasida gender tenglikni ta'minlash bo‘yicha hamkorlik mavjud bo‘lib, XMT konvensiyalarini (87, 98, 100, 111, 156, 183, 190-sonli) amalga oshirish kelishilgan.

Qo‘mita Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) bilan mintaqaviy hamkorlikni ham amalga oshirib kelmoqda. 2025-yil 11–12-iyun kunlari Boku shahrida TDTga a'zo mamlakatlarning oila masalalari va ijtimoiy siyosat uchun vakolatli vazirlari va muassasalari rahbarlarining ikkinchi yig'ilishida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etdi. Oilani mustahkamlash, gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tajriba almashildi.

Markaziy Osiyo gender asosidagi zo‘ravonlikka barham berish alyansi (CA Alyansi) bo‘yicha 2025-yil 11-dekabrda "Genderga asoslangan zo‘ravonlikka chek qo‘yish bo‘yicha Markaziy Osiyo alyansining yillik forumi" o‘tkazildi. Gender zo‘ravonligining oldini olish va unga javob qaytarish sohasida mamlakatlarning yutuqlari va eng yaxshi amaliyotlari taqdim etildi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida "Ayollar daftari" – ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish tizimi sifatida ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-

qizlarni aniqlash; ularning muammolarini o‘rganish va hal etish; manzilli yordam ko‘rsatish borasida samarali islohotlarga muhim ta’sir ko‘rsatmoqda. Amalga oshirish mexanizmi doirasida mahallalardagi xotin-qizlar faollari tomonidan uyma-uy yurish orqali xotin-qizlarning muammolarini aniqlab, "Ayollar daftari"ga kiritiladi; "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlashda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar, mutasaddi davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ayollar muammolarining hal etilishi yuzasidan monitoring yuritiladi va ko‘maklashiladi. "Ayollar daftari" va "mahallabay ishlash" tizimining joriy etilishi – har bir xotin-qizning muammolarini individual yechim topishini ta’minlamoqda.

Respublika va hududiy "Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari" – Qo‘mita tizimiga kiruvchi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muassasalari bo‘lib, vazifalari – xotin-qizlarga tadbirkorlik asoslarini o‘qitish; mikrokreditlar va grantlar ajratishda ko‘maklashish; tadbirkorlik loyihalarini ishlab chiqishda maslahat berish; tadbirkor xotin-qizlarni birgalikda faoliyat yuritishga birlashtirishdan iborat. 2025-yilda 980 nafar tadbirkor xotin-qizlarga Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan grant mablag'lari ajratildi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi oshdi, yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Iqtidorli qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini to‘g'ri yo‘naltirish va rag'batlantirishga qaratilgan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti qizlarning siyosiy, huquqiy va kasbiy bilimlarini, boshqaruv ko‘nikmalari va liderlik sifatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Har yili iqtidorli qizlar o‘rtasida tanlov o‘tkaziladi; g'oliblarga Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti topshiriladi; mukofot egalari oliy o‘quv yurtlariga imtiyozli asosda qabul qilinadi.

Ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayollar uyushmasi – "Olima ayollar" jamiyati iqtidorli xotin- qizlarni ilm-fanga jalb etish; ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash; xotin-qizlarning ilmiy faolligini oshirishni maqsad qilgan.

2023-yil aprelda O‘zbekistonning Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to‘g'risidagi kodekslariga oiladagi zo‘ravonlikka, jumladan, oilaviy munosabatlardagi jismoniy, ruhiy va iqtisodiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritildi.

2026-yil 3-mart: Prezidentning PF-33-sonli "Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Unda Qo‘mitaning xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish borasida amaliy targ'ibot va turkum tadbirlarni tashkil etish; ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish; zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar va bolalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga amaliy yordam ko‘rsatish yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish kabi vazifalari belgilab berildi. Zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar uchun tezkor yordam chaqiruv tizimlari joriy etildi; maxsus elektron platformalar va idoralararo hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida xotin-qizlar siyosati inson huquqlari va xalqaro standartlar asosida qayta shakllandi, gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirildi. Xotin-qizlarga oid davlat siyosati bosqichma-bosqich rivojlanib, huquqiy va institutsional asoslari mustahkamlandi. Yangi O‘zbekiston davrida (2017–2026 yy.) xotin-qizlar siyosati tubdan yangilanib, institutsional islohotlar amalga oshirildi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tizimli islohotlar amalga oshiruvchi asosiy davlat organi sifatida shakllandi va uning vakolatlari kengaytirildi. Institutsional islohotlar xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlash va ularning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligi sezilarli darajada oshdi: parlamentda 32 foiz, oliy ta’limda 45,6 foiz ayolla r.Biroq, “erta turmush”, gender stereotiplari, moliyaviy qaramlik va maishiy zo‘ravonlik kabi muammolar hali ham saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham, mahallalarda o‘zini-o‘zi boshqaruvchi organlar tomonidan ota-onalarga tushuntirish ishlari olib borilishi; qizlarning kasbiy qiziqishlarini maktab davridan o‘rganish va ularga yo‘nalish berish; gender stereotiplarini bartaraf etish: jamiyatda shakllangan “ayollarga xos kasblar” tushunchasini

muomaladan chiqarish yoki ularning turlarini kengaytirish; fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yo‘nalishlarida qizlarni rag‘batlantirish; masofadan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish: uy vazifalari va bolalarni tarbiyalash kasbiy faoliyatiga to‘siq bo‘lmasligi uchun masofadan turib ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish; huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadida xotin-qizlar uchun huquqiy ta’lim loyihalari, siyosiy karyera va davlat boshqaruvida ishtirokini oshirish dasturlarini amlga oshirish; nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish: xotin-qizlarda ijodkorlikni rag‘batlantiruvchi loyihalarni ishlab chiqish, uy sharoitida o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish imkonini berish kabi taklif va tavsiyalarni berish mumkin.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. "Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 1999-yil 14-aprel, 760-I-son// https://lex.uz/docs/-10550?otherlang=1
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “1999-yilda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning rolini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish yuzasidan davlat dasturi tadbirlari to‘g‘risida” 73-son qarori, 18.02.1999//https://lex.uz/docs/-2291986
4. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlarga qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida” Qonuni, 14.04.1999 yildagi 760-I-son//https://lex.uz/docs/-10550?otherlang=1
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” PF-2326-son Farmoni, 10.06.1999//https://www.lex.uz/uz/docs/-213812?ONDATE=24.01.2026
6. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent, 1994.
7. “Xotin-qizlarning huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish” to‘g‘risidagi konvensiya. – T.: BMTning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 1998.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni//https://lex.uz/docs/-4494849
9. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi to‘g'risida Nizom. – Toshkent, 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi PF-33-sonli Farmoni.
11. "O‘zbekistonda gender tengligi tahlili" hisoboti. – Jahon banki, 2024.
12. Elboyeva Sh.B. Ilm-fan sohasini rivojlantirishda xotin-qizlarning ishtiroki // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – № 2. – B.105–108.
13. Mehnat huquqi: Darslik / B.T. Musayev, K.R. Aliyeva, B.A. Narimanov. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2020. – 282 b.
14. Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konventsiya// https://gov.uz/oz/advice/589/document/2699
15. O‘zbekiston Respublikasi Oila va Mehnat kodekslarining gender ekspertizasi. – Toshkent, 2008.
16. Inomova S. “E’zozli ayol istiqboli”. – Toshkent, 2005.
17. Akramov D.F. Sovet boshqaruvi davrida O‘zbekiston maorifida xotin-qizlarning o‘rni // Look to the past. – 2022. – Vol. 5, Issue 4. – B.18–24.
18. Mardiyeva G.K. Uzbek women: social changes during Soviet rule // Science and Education. – 2023. – Vol. 4, Issue 10. – B.343–347.
19. G'afforova M.Q., Mardiyeva M.A. O‘zbekistonda gender tengligi va ijtimoiy inklyuziyani qo‘llab-quvvatlash: yanada adolatli jamiyat sari yo‘llar // Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi. – 2024. – B.157–164.
20. Ismoilova D.X. O‘zbekistonda xotin-qizlarning mavqeyi (1991–2016) // Modern Science and Research. – 2024. – Vol.3, Issue 12. – B.960–962.

21. Aminova G.X., Oribjonova S.Z. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlari va yuzaga kelayotgan muammolar // International Journal of Social Research. – 2024. – Vol.5, Issue 1. – B.388–392.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000